INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SUN’IY INTELLEKT PROMPTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI KATEGORIYALARI

Botirova Valida Shuhrat qizi
Andijon chet tillari instituti magistr bitiruvchisi
E-mail: botirovavalida@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida generativ sun’iy intellekt bilan muloqot jarayonida qo‘llaniladigan promptlarning pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda promptlar foydalanuvchining kommunikativ maqsadini ifodalovchi pragmatik birlik sifatida qaralib, ularning nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, bevosita va bilvosita ifoda shakllari hamda kontekstualizatsiya vositalari o‘rganiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda katta til modellarining pragmatik ma’noni anglashida kontekst va kommunikativ maqsad muhim o‘rin tutishi qayd etilgaanligi, shuningdek, inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi muloqotda xushmuomalalik turli lingvistik strategiyalar orqali namoyon bo‘lishi va promptning pragmatik shakllanishi model javobiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ushbu tezisda asosiy markazda turadi. Bu kichik ilmiy izlanish ingliz va o‘zbek tillaridagi promptlarda mazkur pragmatik vositalarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda ularning inson va sun’iy intellekt kommunikatsiyasidagi funksiyalarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: prompt, pragmatika, generativ sun’iy intellekt, nutq akti, xushmuomalalik, bevositalik, bilvositalik, kontekstualizatsiya.

Kirish. Bugungi kunda generativ sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim, ilmiy faoliyat, tarjima, matn yaratish va kundalik axborot izlash jarayonlarida keng foydalanilmoqda. Bunday tizimlar bilan muloqot asosan tabiiy tilda yozilgan promptlar orqali amalga oshadi. Shu sababli promptni faqat sun’iy intellektga beriladigan texnik ko‘rsatma sifatida emas, balki foydalanuvchining maqsadi, niyati va muloqot usulini aks ettiruvchi kommunikativ birlik sifatida o‘rganish muhimdir. Ushbu soha so‘nggi yillarda izlanuvchilarning e’tiborini tortdi va ular turli qirralarda o‘z tadqiqotlarini boshladilar. Jumladan, Ma va hammualliflar pragmatikaning asosiy vazifasi til birliklarining kontekstda qanday ma’no kasb etishini o‘rganish ekanini ta’kidlab, katta til modellarining ham yashirin ma’no, kommunikativ niyat va kontekstga bog‘liq axborotni to‘g‘ri talqin qilishi muhimligini ko‘rsatadi.

Inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi muloqotda xushmuomalalik masalasi ham alohida e’tiborga loyiq. Ushbu tezisni yozish davomida biz tayangan asosiy manba Yin va hammualliflarning ingliz, xitoy va yapon tillari asosidagi

tadqiqoti promptdagi xushmuomalalik darajasi model faoliyatiga ta’sir qilishi mumkinligini o‘rganishgan. Hayratlanarlisi shundaki, yuqori darajadagi xushmuomalalik har doim ham yaxshiroq natijani kafolatlamasligi mumkinligini isbotlab berishgan. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda inson va sun’iy intellekt muloqotidagi xushmuomalalikni faqat “please” yoki “thank you” kabi alohida markerlar bilan baholash yetarli emasligi, foydalanuvchilar turli lingvistik va interaksion strategiyalardan foydalanishi qayd etiladi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbek tillarida tuzilgan AI promptlarini pragmatik jihatdan qiyoslash ikki tilda foydalanuvchi kommunikativ niyatining qanday ifodalanishini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tezisimizning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi sun’iy intellekt promptlarida nutq aktlari, xushmuomalalik strategiyalari, bevositalik va bilvositalik hamda kontekstualizatsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Sun’iy intellektga yozilgan promptni pragmatik jihatdan tahlil qilishda, avvalo, uning ortida qanday kommunikativ niyat turganiga e’tibor qaratishimiz kerak. Ma va hammualliflar nutq aktini faqat axborot yetkazuvchi gap emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi birlik sifatida izohlaydi. Masalan, “Can you explain this rule?” grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, uning asl maqsadi ma’lumot olish emas, balki tushuntirishni so‘rashdir. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi “Bu qoidani tushuntirib bera olasizmi?” prompti ham qobiliyat haqida savol emas, balki bilvosita so‘rovni ifodalaydi. Bizningcha, aynan shu xususiyat promptni oddiy buyruqdan pragmatik birlik sifatida ajratib turadi: foydalanuvchi AIga nima qilish kerakligini aytish bilan birga, bu niyatni muayyan lingvistik shaklda ifodalaydi. Ma et al. ham nutq aktlarini tushunishda so‘zlovchi niyatini aniqlash hal qiluvchi ahamiyatga egaligini qayd etadi.

Bu holat promptlardagi bevositalik va xushmuomalalik bilan ham chambarchas bog‘liq. Masalan, “Explain this rule” va “Could you please explain this rule?” bir vazifani bildiradi, ammo ikkinchi prompt modal konstruksiya va please markeri orqali yumshatilgan. O‘zbek tilida ham “Bu qoidani tushuntir” va “Iltimos, bu qoidani tushuntirib bera olasizmi?” o‘rtasida shunday pragmatik farq mavjud. Biroq bundan bilvosita yoki xushmuomala prompt har doim samaraliroq degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas. Yin va hammualliflar ingliz, xitoy va yapon tillarida o‘tkazgan tajribalarida haddan tashqari xushmuomalalik doimo yaxshiroq natija bermasligini va maqbul xushmuomalalik darajasi tillar bo‘yicha farqlanishini aniqlagan. Bizning fikrimizcha, bu natija promptlardagi xushmuomalalikni universal qolip asosida emas, balki har bir tilning pragmatik imkoniyatlarini hisobga olgan holda

o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli ingliz tilidagi please/could you va o‘zbek tilidagi iltimos/...bera olasizmi shakllarini shunchaki bir-birining to‘liq ekvivalenti sifatida baholash yetarli emas.

Promptning yana bir muhim jihati kontekstualizatsiyadir. Ma va hammualliflar kontekstni pragmatik talqinning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatib, u lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarni qamrab olishini ta’kidlaydi. Masalan, “Explain photosynthesis” prompti umumiy ko‘rsatma bersa, “Explain photosynthesis to a 10-year-old student in simple English” shaklida auditoriya, maqsad va kerakli uslub ham aniqlashtiriladi. Bunday kontekst promptning shunchaki uzunroq shakli emas; u foydalanuvchining kommunikativ niyatini aniqroq chegaralaydi va modeldan qanday javob kutilayotganini belgilaydi.

Demak, ingliz va o‘zbek tillaridagi promptlarni faqat grammatik qurilishi yoki please/iltimos kabi alohida markerlar orqali qiyoslash yetarli emas. Nutq akti foydalanuvchining kommunikativ maqsadini, bevositalik va xushmuomalalik ushbu maqsadning qanday ifodalanganini, kontekstualizatsiya esa javob qanday kommunikativ sharoitga moslashtirilishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur to‘rt jihatni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish ingliz va o‘zbek tillaridagi AI promptlarining pragmatik tabiatini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga yo‘naltirilgan promptni faqat texnik ko‘rsatma sifatida baholash uning kommunikativ tabiatini to‘liq ochib bermaydi. Promptda foydalanuvchining maqsadi nutq aktlari orqali ifodalansa, xushmuomalalik hamda bevosita va bilvosita murojaat shakllari ushbu maqsadning qanday yetkazilishini belgilaydi. Kontekstualizatsiya esa foydalanuvchining ehtiyoji va kutilayotgan javob xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Demak, mazkur pragmatik jihatlar alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda promptning umumiy kommunikativ tuzilishini shakllantiradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi promptlarni qiyoslashda esa bir tildagi xushmuomalalik yoki bilvositalik vositalarini ikkinchi til vositalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirish yetarli emas. Har bir til foydalanuvchiga kommunikativ niyatni ifodalash uchun o‘ziga xos lingvistik imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu sababli inson va sun’iy intellekt muloqotini o‘rganishda grammatik shakl bilan bir qatorda kommunikativ niyat, kontekst va tilga xos pragmatik strategiyalarni ham hisobga olish zarur. Kelgusida ingliz va o‘zbek tillaridagi kattaroq promptlar korpusi asosida ushbu xususiyatlarni empirik jihatdan o‘rganish ikki tildagi inson-AI kommunikatsiyasining pragmatik qonuniyatlarini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ma B., Li Y., Zhou W., Gong Z., Liu Y. J., Jasinskaja K., Friedrich A., Hirschberg J., Kreuter F., Plank B. Pragmatics in the Era of Large Language Models: A Survey on Datasets, Evaluation, Opportunities and Challenges // Proceedings of the 63rd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. Vol. 1: Long Papers. – Vienna: Association for Computational Linguistics, 2025. – P. 8679–8696. 2025.
2. Yin Z., Wang H., Horio K., Kawahara D., Sekine S. Should We Respect LLMs? A Cross-Lingual Study on the Influence of Prompt Politeness on LLM Performance // Proceedings of the Second Workshop on Social Influence in Conversations (SICon 2024). – Miami, Florida, USA: Association for Computational Linguistics, 2024. - P. 9–35. – DOI: 10.18653/v1/2024.sicon-1.2.
3. Elsweiler C., Ziegner A., Elsweiler D. From Hyperpolite to Hyperefficient: A Continuum of User Politeness in Human–GenAI Interactions // Corpus Pragmatics. – 2026. – Vol. 10. – Art. 24. – DOI: 10.1007/s41701-025-00225-1.
4. Sravanthi S. L., Doshi M., Kalyan T. P., Murthy R., Dabre R., Bhattacharyya P. PUB: A Pragmatics Understanding Benchmark for Assessing LLMs' Pragmatics Capabilities // Findings of the Association for Computational Linguistics: ACL 2024. – Bangkok, Thailand: Association for Computational Linguistics, 2024. – P. 12075-12097. 2024.